



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari



Dars maqsadlari

1. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlarining vazifalarini, xizmatini va ularning jamiyatdagi ahamiyatini tushuntirish.
2. Milliy institutlar va nodavlat tashkilotlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish.
3. O'quvchilarga inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi amaliy vositalarni tushuntirish, ularni o'rganish va ishlatishga yo'naltirish.

Kutilayotgan natijalar

Tizimni tushunish

O'quvchilar inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari tizimini tushunishadi.

Ma'lumot olish

Huquqni himoya qilish tashkilotlarining asosiy vazifalari haqida ma'lumot olishadi.

Munosabat bildirish

Milliy va nodavlat tashkilotlarning roliga munosabat bildirishadi.

Amaliy o'rganish

Keysli va amaliy vaziyatlar orqali organlarning ishlashini o'rganishadi.





Dars metodlari

Suhbat

O'quvchilar bilan savol-javoblar olib borish.

Keys

Huquq buzilishlari bo'yicha hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish.

Blits so'rov

Savollar orqali o'quvchilarning bilimlarini tekshirish.

Hikoyalar

Real hayotdan olingan namunalarni tahlil qilish.

Foydalaniladigan materiallar

Taqdimot

Davlat organlari, milliy va nodavlat tashkilotlar haqida ma'lumotlar.

Kartochkalar

Keyslar va amaliy mashg'ulotlar uchun vaziyatlar (keys).



Inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari




Xalqaro darajada

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar orqali.



Milliy darajada

Davlat organlari va milliy institutlar orqali.



Mahalliy darajada

Nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati orqali.

Davlat organlari tizimi

Ta'rif

Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari tizimi – bu inson huquqlarini ta'minlash, himoya qilish va buzilishlariga to'sqinlik qilishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va muassasalarining umumiy tizimidir.

Huquqiy asos

Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq faoliyatni amalga oshiriladi.

Misol

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qiluvchi asosiy organlar Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, prokuratura, ichki ishlar vazirligi va boshqalardir

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi



1 Vazifasi

Qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini tekshirish.

2 Ahamiyati

Inson huquqlarini himoya qilishda yuqori davlat organi sifatida faoliyat yuritadi.

3 Murojaat

Fuqarolar va tashkilotlar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega.

O`zbekiston Respublikasining Oliy sudi

Vazifasi

Fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish.

Ahamiyati

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilishni ta'minlaydi.





Prokuratura

1 Vazifasi

Qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

2 Ahamiyati

Inson huquqlarini buzilishiga qarshi kurashish va oldini olish.

3 Murojaat

Fuqarolar prokuraturaga shikoyat va arizalar bilan murojaat qilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari



Vazifasi

Jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish.

Ahamiyati

Fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash orqali inson huquqlarini himoya qilish.

Murojaat

Fuqarolar huquqbuzarliklar to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar berishi mumkin.

Milliy institutlar



Ta'rif



Inson huquqlarini monitoring qilish, muammolarni hal qilish, huquqiy yordam ko'rsatish vazifalariga ega tashkilotlar.

Vazifalar



Inson huquqlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi.

Misol



Milliy institutlar, masalan, O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari Milliy markazi.



Inson huquqlari Milliy markazi

1 Vazifasi

Inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish.

2 Faoliyat

Monitoring, tahlil, huquqiy yordam va ma'rifiy ishlar olib borish.

3 Ahamiyati

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy darajada joriy etishga ko'maklashish.

Ombudsman instituti

Vazifasi

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha vakili.

Ahamiyati

Inson huquqlarini himoya qilishda fuqarolarning shikoyatlari bo'yicha, shuningdek, o'z tashabbusi bilan ish olib boradi.





Nodavlat tashkilotlar

1 Faoliyat yo'nalishlari


Inson huquqlarini himoya qilish, zo'ravonlik va diskriminatsiyaga qarshi kurashish.

2 Vositalar

Huquqiy yordam, monitoring, ta'lim va boshqa vositalar orqali faoliyat yuritish.

Hayotiy vaziyat

Nodir (17 yosh) supermarketda kassir sifatida ishlay boshladi. Ushbu ishga kirishda ish vaqti haftasiga 30 soat deb kelishilgan, ammo ish beruvchi uning ish vaqtini 8 soatga uzaytirishni talab qilgan. Bu uning maktabga borishini qiyinlashtirdi. Shuningdek, Nodir ishga qabul qilishda kelishilgan maoshni ham olmagan. Nodir ish sharoitlari va maoshi bo'yicha qonun buzilishini sezib, prokuraturaga murojaat qildi.




Savol: “Bu holatda inson huquqlari bo'yicha qaysi organ ishni ko'rib chiqadi?”

Blits so'rov



1. “Davlat organlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?”
2. “Milliy institutlar inson huquqlarini himoya qilishda qanday ishlashadi?”
3. “Nodavlat tashkilotlar inson huquqlari sohasida qanday faoliyat yuritishadi?”
4. “Inson huquqlari buzilganida qaysi organ yoki tashkilotga murojaat qilish kerak?”



Darsni yakunlash



Hamkorlik

Barcha organlar va tashkilotlar birgalikda inson huquqlarini samarali himoya qiladi.

Fuqarolar roli

Har bir fuqaro o'z huquqlarini bilishi va himoya qilishda faol bo'lishi muhim.